

**MAKTABGACHA TA'LIMDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNI AMALGA
OSHIRISHNING SHART-SHAROITLARI****Djurayeva Sharofatxon Nurmatovna**

**University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi Ijtimoiy Gumanitar
fanlar fakulteti Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 22-20 guruh talabasi
Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani Barkamol avlod bolalar maktabi to'garak raxbari
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15304643>**

Annotatsiya: o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan yosh avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelmoqda. Ushbu maqolada, maktabgacha ta'limda zamonaviy yondashuvlarni amalga oshirishning ahamiyati va shart-sharoitlari xaqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ijtimoiylashuv jarayoni, zamonaviy yondashuvlar, uzluksiz ta'lim, maktabgacha ta'lim prinsiplari, tarbiya, ko'nikma, malaka, rivojlanish.

Abstract: Over the past period, extensive work has been carried out in our country to organize an effective system of preschool education aimed at raising the growing young generation to a healthy and comprehensively mature adulthood, introducing effective forms and methods of education and upbringing into the educational process. This article provides information on the importance and conditions for implementing modern approaches in preschool education.

Keywords: preschool education, socialization process, modern approaches, continuous education, principles of preschool education, upbringing, skills, qualifications, development.

Аннотация: За истекший период в нашей стране проведена большая работа по организации эффективной системы дошкольного образования, направленной на воспитание подрастающего молодого поколения к здоровой и всесторонне зрелой взрослой жизни, внедрению в образовательный процесс эффективных форм и методов обучения и воспитания. В статье представлена информация о важности и условиях внедрения современных подходов в дошкольное образование.

Ключевые слова: дошкольное образование, процесс социализации, современные подходы, непрерывное образование, принципы дошкольного образования, воспитание, умения, навыки, квалификации, развитие.

Mamlakatimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, yosh avlodni tarbiyalash va ularni ta'limli qilish borasida qator ishlarni amalga oshirib bordi. Ayniqsa maktabgacha ta'limga bo'lgan e'tiborning kuchayishi va jaxon tajribalari asosida rivojlantishni maqsad qilinishi, bu soha rivoji uchun xizmat qildi.

Ta'limning maktabgacha ta'lim bo'g'inida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlar sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Xozirgi zamonning maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarni jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish kelajakda o'qituvchilik kasbini egallaydigan yangi avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy siyosiy hayotda erkin, mustaqil faoliyat ko'rsata olish, yuksak darajadagi pedagogik mahoratga ega bo'lishga yo'naltirilgan. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022--2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish" kabi muhim ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasbhunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi.

Jumladan, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo'yildi.

Rivojlanishning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiya. Shu boisdan jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas.

Jumladan, maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Shu sababli o'tgan vaqt mobaynida maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish – ta'lim sohasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olindi.

Har qanday ta'lim tizimining tamal toshi maktabgacha ta'lim tizimi tashkilotlarida qo'yilishi hammamizga ma'lum. Yaqin-yaqingacha nafaqat olis qishloqlarda, balki yirik shaharlarda ham maktabgacha yoshdagi bo'lgan bolalarni bog'cha tarbiyasi bilan qamrab olish muammoli masalalardan biri edi. Tashkilot tarbiyachilariga bo'lgan talab ham shunga yarasha edi. Ammo so'nggi yillarda bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyasiga jalb etish hamda ularda faoliyat yuritayotgan xodimlarning malakasiga bo'lgan talab oshdi. Bu esa kelajak avlodning barkamolligi yo'lidagi ulkan xizmatlardan biri bo'ldi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimida ko'pgina islohotlar amalga oshirilmoqda, ularning barchasi tarbiyalanuvchilar va tarbiyachi-pedagoglar manfaatlarini yo'lida xizmat qilishi va maktabgacha ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga qaratilishi – davr talabidir.

Demokratiya va insonparvarlik prinsiplariga tayangan holda tashkil etiladigan maktabgacha ta'lim jarayoni nafaqat bolaning tashqi holati, balki uning ichki dunyosi, mayllari, intilishlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi bilan ham alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda tashkilot rahbarlari va tarbiyachi-pedagoglarning asosiy vazifasi tarbiyalanuvchilarning shaxsiy

imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, intellektual taraqqiyotlarini ta'minlash vositalari, usullari, metodlari va yo'llarini izlab topishdan iboratdir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- har bir bola uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi;
- har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarning tengligi;
- maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi; – maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish uyg'unligi;
- bolaning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv;
- maktabgacha va umumiy o'rta ta'limning izchilligi hamda uzluksizligi;
- ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi;
- ta'lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi;
- maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog'ligi holatiga muvofiqligidan iborat.

Ta'limning sifatini va uning qulayligini ta'minlash uni modernizatsiyalashning muhim vazifalaridandir. Maktabgacha ta'limni modernizatsiyalash jarayonida boshqaruv kadrlari va tarbiyachilarning shaxsiy uslubini faol tarzda qayta qurish talab qilinadi. Buning uchun maktabgacha ta'lim dasturlarining tarkibiy tuzilishini davlatning ta'limning mazkur bug'ini oldiga quygan talablari asosida takomillashtirish lozim.

Bugungi kunga kelib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim oluvchilar soni sezilarli darajada ko'paymoqda. Shuning uchun ham maktabgacha ta'limning samaradorligini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari va tarbiyachilar ta'lim-tarbiyaning samarali usullari va metodlarini izlab topish ustida tinmay harakat qilishlari kerak.

Innovatsion faoliyatga asoslangan pedagogik yondashuvlar va nazariyalar yangiliklarni yaratish, tatbiq etish va ulardan foydalanishning yaxlit, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatga aylanishini talab etmoqda. Pedagoglarning innovatsion faoliyati bolalarning mustaqilligi, qiziquvchanligini oshirish, ularda ijodiy tafakkurni rivojlantirish, murakkab vaziyatlardan chiqish imkoniyatini izlab topish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Shundagina pedagoglar o'z kuchlariga ishonib bolalarning o'zgaruvchan vaziyatlarda aniq faoliyat ko'rsata olishlariga ko'maklashadilar. Shu bilan bir qatorda ular bolalarning ota-onalarini maktabgacha ta'lim tashkiloti hayotida faol ishtirok etishga jalb etadilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sifatli ta'lim bilan ta'minlash uchun ta'lim jarayonini modernizatsiyalash nihoyatda zarur hisoblanadi. Buning uchun bolani ijtimoiy hayotga tayyorlashga xizmat qiladigan barcha pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish va o'zaro mujassamlashtirish talab etiladi.

Maktabgacha ta'limning sifati ta'limning keyingi bosqichlarida bolalarning bilimlarni sifatli o'zlashtirishlarini kafolatlaydi. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarini modernizatsiyalashga oid yagona talablarni ishlab chiqish, ushbu talablar sifatli ta'lim va tayanch ko'nikmalarni hosil qilishni nazarda tutadi. Bu talablar asosida bolalarga ta'lim berish erta bolalik davridan boshlanadi va uzluksiz davom etadi.

Maktabgacha ta'limni individuallashtirish tamoyili o'zida bir qator talablarni mujassamlashtiradi. Bu esa o'ziga xos tabiiy jarayon hisoblanadi. Jamiyatning rivojlanishi barobarida shaxs faoliyati xam ko'proq darajada individuallashtiriladi va uning mavqei o'zgaradi.

Agar mamlakat va jamiyat qanchalik rivojlangan bo'lsa, unda har bir inson alohida qadrlanadi va o'z o'rniga ega buladi.

Ta'limning poydevori bo'lgan maktabgacha ta'limning tubdan isloh qilinishi sifati uzluksizlik nuqtayi nazaridan yondashgan holda tahlil qilinadi. Bu jarayonda barcha bolalar uchun teng imkoniyatga ega bo'lgan dastlabki bilim va tushunchalar shakllantiriladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.M.Mirziyoyevning PF-152-sonli "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni 30.09.2024 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni
3. Toxirovna, K. F. (2024). O 'Qituvchilik Faoliyatida Deontologik Tayyorgarlikni Oshirish. *Miasto Przyszłości*, 51, 146-148.
4. Kalandarova F.T. KOMPETENTSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING DEONTOLOGIK KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSI SIFATIDA. <https://www.iupr.ru/5-120-2024>
5. Kalandarova, F. (2024). O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMMUNIKATIV QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA DEONTOLOGIK YONDASHUV. Namangan Davlat Universiteti.
6. Toxirovna, K. F. BO 'AJAK BOSHLANG 'ICH TA'LIM O 'QITUVCHILARINING DEONTOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR Abdullayeva Nasibaxon Jo'rayevna pfd, professor. *O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI UMUMIY PEDAGOGIKA KAFEDRASI*, 120.